

TADBIRKORLIK FAOLIYATINING MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA TUTGAN O'RNINI VA UNI TADQIQ ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

Boboqulov Olmos Yusup o'g'li

Guliston davlat universiteti

Iqtisodiyot yo'nalishi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12657616>

Annotatsiya. Mazkur maqolada iqtisodiyotda ro'y berayotgan turli ijobiy o'zgarishlar ko'p jihatdan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi bilan uzviy bog'liqligi yoritilgan. Ushbu sohani jadal rivojlanishini ta'minlash maqsadida qonunchilik bazasini takomillashtirib borish ob'yektiv zaruriyat hisoblanadi va uning nazariy asoslarini yaratishni takomillashtirish masalalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: biznes, tovar, bozor, raqobat, investitsiya, innovatsiya, modernizatsiya, eksport, moliya, makroiqtisod, inqiroz, marketing, korxonalar, intellektual.

THE ROLE OF ENTREPRENEURIAL ACTIVITY IN THE COUNTRY'S ECONOMY AND THEORETICAL BASIS OF ITS RESEARCH

Abstract. This article highlights the fact that various positive changes taking place in the economy are in many ways closely related to the development of small business and private entrepreneurship. In order to ensure the rapid development of this field, it is considered an objective necessity to improve the legal framework, and the issues of improving the creation of its theoretical foundations have been considered.

Key words: business, commodity, market, competition, investment, innovation, modernization, export, finance, macroeconomics, crisis, marketing, enterprise, intellectual.

РОЛЬ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ЭКОНОМИКЕ СТРАНЫ И ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЕЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

Аннотация. В данной статье поясняется, что различные положительные изменения, происходящие в экономике, во многом неразрывно связаны с развитием малого бизнеса и частного предпринимательства. В целях обеспечения быстрого развития данной сферы считается объективной необходимостью совершенствование законодательной базы, а также рассматриваются вопросы совершенствования создания ее теоретических основ.

Ключевые слова: бизнес, товар, рынок, конкуренция, инвестиции, инновации, модернизация, экспорт, финансы, макроэкономика, кризис, маркетинг, предприятие, интеллектуал.

Mamlakatimizni iqtisodiy jihatdan taraqqiy ettirish, hududlar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik alohida ahamiyat kasb etadi va bugungi kunda uning o'rnini va ahamiyati yanada ortib bormoqda. Shu bois, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish har qanday mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlovchi asosiy bo'g'in va amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

Iqtisodiyotda ro'y berayotgan turli ijobiy o'zgarishlar ko'p jihatdan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi bilan uzviy bog'liqdir. Jamiyatimizning iqtisodiy negizi

bozor iqtisodiyotiga asoslangan. Bozor iqtisodiyotining tayanchi sifatida esa kichik biznes va xususiyl tadbirkorlik sohasi muhim o'rin egallaydi. Ushbu sohani jadal rivojlanishini ta'minlash maqsadida qonunchilik bazasini takomillashtirib borish ob'yektiv zaruriyat hisoblanadi. Chunki, kichik biznes va xususiyl tadbirkorlik sohasi mamlakat iqtisodiyotini barqaror yuksaltirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi daromadini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy hamkorligi mintaqaviy darajada ham, alohida korxonalar va kompaniyalarda ham yuqori rivojlanish sur'atlari bilan ajralib turibdi. Respublikaning xorijiy hamkorlar bilan savdo-sotiq aloqalari aniq eksport yo'nalishiga ega. MDH mamlakatlari bozorlariga eksportning barqaror yo'nalishi mavjud. O'zbekiston Respublikasining MDHga kirmagan mamlakatlar bilan eksport ulushi 72% ni (2000 yilda - 98%), import xaridlarida - 62% ni (2000 yilda - 68%) tashkil etgan.

O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiyl tadbirkorlik sub'yektlari asosan oziq-ovqat mahsulotlari, kimyo va undan tayyorlangan mahsulotlar, to'qimachilik mahsulotlari, chirm-poyabzal mahsulotlari, qurilish materiallari hamda turli xizmatlarni eksport qiladi.

Eksport qilinadigan tovarlar hajmining sezilarli ulushi oziq-ovqat sanoati mahsulotlari, yengil sanoat mahsulotlari, kimyo va undan tayyorlangan mahsulotlar hamda xizmatlar sohasiga to'g'ri keladi¹. 2020 yilda kichik biznes va xususiyl tadbirkorlik sub'yektlarining eksport hajmi mamlakatdagi barcha korxonalar tomonidan xorijga eksport qilinayotgan tovarlar umumiy hajmining 20,5 foizini tashkil etdi.

Mamlakatimizda ham barqaror ijtimoiyl iqtisodiy o'sishni ta'minlashda kichik biznes va xususiyl tadbirkorlik sub'yektlarining o'rni beqiyosdir. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasida kichik biznes va xususiyl tadbirkorlik xususida quyidagilar alohida ta'kidlangan: "Kichik biznes va xususiyl tadbirkorlik milliy iqtisodiyotni yaratish, jamiyatning ijtimoiyl barqarorligini asosi hisoblanuvchi o'rta mulkdorlar sinfini shakllantirish, raqobat muhitini vujudga keltirish va barqaror iqtisodiy o'sishga erishishda muhim omil bo'lib hisoblanadi"².

Kichik biznes va xususiyl tadbirkorlikning mamlakatimiz iqtisodiyotidagi ahamiyatini oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2016 yil 5 oktyabrdagi "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiyl mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbi-larmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni³ alohida rol o'ynadi, chunki bu farmonda xususiyl mulkni huquqiy himoya qilishni yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiyl tadbirkorlik uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va har tomonlama qo'llab-quvvatlashga asosiy e'tibor qaratilgan. Mamlakatimiz iqtisodiyotini taraqqiy ettirish, yangi ish o'rinlarini yaratish bilan bog'liq masalalarni hal etishda tadbirkorlik faoliyatini

¹ Mirzaev X. Tadbirkorlik sub'yektlarining eksport salohiyatini oshirish yo'llari. "Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot" nomli ilmiy, masofaviy onlayn konferentsiya materiallari., <https://doi.org/10.5281/zenodo.7972678>

² Стратегия развития Нового Узбекистана на 2022 - 2026 годы. https://president.uz/uz/pages/view/strategy?menu_id=144

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Тadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiyl mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbi-larmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 05.10.2016 yildagi ПФ-4848-сон, <https://lex.uz/docs/3039311>

erkinlashtirish juda muhimdir, aynan ushbu masalaga berilgan e'tibor yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, ushbu sohaning mamlakatimiz YaIMdagi ulushini doimiy oshib borishiga sabab bo'lmoqda.

Mustaqillik yillarida tadbirkorlikning mohiyatini nazariy tadqiq etish va O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishning nazariy va amaliy masalalari Respublikamiz olimlari tomonidan keng tadqiq etilgan va rivojlantirilgan. Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari A.O'lmasov va M.Sharifxo'jayevlar «Tadbirkorlik umuman pul topish emas, balki yaratuvchanlik faoliyati orqali daromad olishni bildiradi»⁴, - deb ta'kidlaganlar. Iqtisodchi olim M.Rasulov «Tadbirkor o'z mulkidan kapital sifatida foydalanib, korxonalar tashkil etadi, tijorat bilan shug'ullanadi, boylikka boylik qo'shadi, mamlakatning iqtisodiy qudratini oshiradi. Agar tijorat ijara va qarz asosida olib borilsa ham, baribir, mahsulot, tovar uning mulkidir»⁵ degan fikrni bildiradi.

H.Abulqosimov tadbirkorlikni «Qonun yo'li bilan man qilinmagan... iqtisodiy unumli faoliyat turi»⁶, H.Rahimqulov esa «Bozorning talab-ehtiyojini qondirib, kishilarning hojatini chiqarib, ularni rozi qilib, pul topishni bildiruvchi... murakkab san'at va kasb»⁷, - deb ta'riflaydilar. Umuman, bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishda foydalaniladigan mulk va boshqa boyliklar tadbirkorlik faoliyatisiz o'zini iqtisodiy jihatdan to'la namoyon qila olmaydi.

Shu o'rinda iqtisodchi olimlar Sh.Shodmonov va T.Jo'rayevlar tadbirkorlik faoliyati tuchunchasining mazmuni uning to'rta o'zaro bog'liq vazifasini aniqlash bilan to'liq namoyon bo'lishligini izohlaydilar.⁸ Bular:

- 1) Tadbirkor foyda olish maqsadida tovar (yoki xizmat) ishlab chiqarishning yagona jarayonida er, suv, kapital va mehnat resurslarini birlashtirish tashabbusini oladi.
- 2) Tadbirkorlik faoliyati - bu tahlikaga boruvchi faoliyatdir.
- 3) Tadbirkor biznesni yuritish, foydani ko'paytirish bo'yicha asosiy qarorlar qabul qiladi, bu qarorlar korxonalar faoliyatining maqsadlarini aniqlab beradi.
- 4) Tadbirkor - yuqori foyda orqasidan quvib, yangi mahsulotlar, yangi ishlab chiqarish texnologiyasi yoki hatto biznesni yangi shakllarini joriy qilishga harakat qiluvchi tashabbuskor shaxs hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik to'g'risida»gi Qonunida «Tadbirkorlik - fuqarolarning foyda yoki shaxsiy daromad olishga yo'naltirilgan mustaqil, tashabbuskor faoliyati bo'lib, u fuqaroning o'z nomidan, o'zining tavakkalchiligi bilan hamda o'zining yoki yuridik (huquqiy) shaxsning mulkiy javobgarligi asosida amalga oshiriladigan tashabbuskor faoliyatdir»⁹ deyiladi.

Bizning fikrimizcha, tadbirkorlik turli mulkchilik shakllariga asoslangan xo'jaliklarni yuritish usuliga tegishli iqtisodiy kategoriyadir. Demak, tadbirkor bir tomondan, mulkchilikning turli shakllariga asoslangan holda o'z mulkidan kapital sifatida foydalanib, korxonalar tashkil etib,

⁴ Ўлмасов А., Шарифхужаев М. Иқтисодиёт назарияси. Дарслик. - Т.: "Мехнат", 1995. - Б.192.

⁵ Расулов М. Бозор иқтисодиёти асослари. - Т.: "Ўзбекистон", 1999. - Б. 224.

⁶ Абдулқосимов Х., Қулматов О. Тadbirkorlik sermashaklat faoliyat. // Иқтисод ва ҳисобот. -Тошкент. 1997. - №9 - Б.9.

⁷ Раҳанқулов Х.Р. Бозор иқтисодиёти асослари. - Термиз. "Жайхун", 1994 - Б.36.

⁸ Шодмонов Ш.Ш., Жўраев Т.Т. Иқтисодиёт назарияси. - Т.: «Молия», 2002. - Б.180

⁹ Ўзбекистон Республикасининг "Тadbirkorlik тўғрисида"ги Қонуни. - Т.: 2000.

tijorat bilan shug'ullanadi, yangi usul va texnologiyalarni qo'llagan holda boylikka-boylik qo'shadi. Bu esa mamlakatning iqtisodiy qudratini oshiradi.

Ikkinchi tomondan, bu usulni amalga oshirish tadbirkorning tashkilotchilik darajasiga bog'liq bo'ladi, aks holda u iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlay olmaydi. Tadbirkorning manfaati iste'molchi manfaatisiz amalga oshmaydi. Tadbirkorning daromad olishi va uning darajasi tovarlarga bo'lgan talab bilan belgilanadi.

Kichik biznesning ravnaq torishini rag'batlantirish va tadbirkorlarning haq-huquqlarini himoya qilish yo'lida davlat boshqaruv organlari bilan bir qatorda nodavlat va xalqaro tashkilotlar ham faoliyat olib bormoqda. Ular kichik korxonalar va yakka tadbirkorlarga amaliy yordam berish, jamiyatda tadbirkorlik harakatini kengaytirish hamda rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga munosib hissa qo'shishmoqda.

Mamlakatimizda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etishning asosiy maqsadlaridan biri mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik shakllarini ustuvor rivojlantirishdan iborat. Bu maqsadni amalga oshirish uchun iqtisodiy islohotlar o'tkazildi, uning rolini oshirish uchun yirik institutsional asoslar yaratildi. Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va uni kafolatlovchi huquqiy-me'yoriy hujjatlar, tadbirkorlarga ko'maklashuvshi nodavlat tashkilotlar, korxonalar shular jumlasiga kiradi.

O'zbekistonda xususiy tadbirkorlik va kichik biznes korxonalari majmuini tashkil etish muvaffaqiyatli bormoqda. Bugungi kunga kelib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari mamlakatimiz iqtisodiyotining barcha jabhalarida, mashinasozlik mahsulotlari ishlab chiqarishda, xalq iste'moli mollari, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda hamda boshqa sohalarda faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) - tadbirkorlik faoliyati sub'yektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir. Tadbirkorlik faoliyati sub'yektlari (tadbirkorlik sub'yektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Respublikamizda ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilinishini ta'minlash, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish borasida amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar 2017-2022 yillar davomida 300 mingga yaqin yangi kichik biznes korxonalarini tashkil etish imkonini berdi.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda tashkil etilayotgan yangi ish o'rinlarining $\frac{3}{4}$ dan ko'p qismi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga to'g'ri keladi. «Biznes yuritish» hisobotida mamlakatimiz ko'rsatkichlarini yaxshilash bo'yicha aniq chora-tadbirlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentning «2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»¹⁰ »gi Farmonida ham belgilab berildi. Strategiyaning asosiy maqsadi davlatning jahon miqyosidagi raqobatbardoshlik darajasini va

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentning Farmoni. «2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida». 2018 yil 21 sentyabr, PF-5544-son

innovatsion taraqqiyotini belgilovchi muhim omil sifatida inson kapitalini rivojlantirish hisoblanadi.

Quyidagilar strategiyaning asosiy vazifalari etib belgilandi:

- O'zbekistonning 2030 yilga kelib Global innovatsion indeks reytingi bo'yicha jahonning 50 ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish;

- barcha darajada ta'lim sifati va qamrovini oshirish, uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish, kadrlar tayyorlash tizimining iqtisodiyot ehtiyojlariga moslashuvchanligini ta'minlash;

- ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarning ilmiy salohiyatini mustahkamlash va samaradorligini oshirish, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va texnologik ishlar natijalarini keng joriy etish uchun ta'lim, ilm-fan va tadbirkorlikni integratsiya qilishning ta'sirchan mexanizmlarini yaratish;

- innovatsiyalar, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va texnologik ishlarga davlat va xususiy mablag'lar kiritilishini kuchaytirish, bu sohalaridagi tadbirlarni moliyalashtirishning zamonaviy va samarali shakllarini joriy etish;

- mulkchilik huquqlari himoyasini ta'minlash, raqobatbardosh bozorlar tashkil etish va biznes yuritish uchun teng shart-sharoitlar yaratish, davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;

- barqaror faoliyat yuritadigan ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmani yaratish;

- boshqaruvning zamonaviy usullari va vositalarini joriy etish orqali davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish.¹¹

Respublikamizda kichik biznes korxonalarini sonining izchillik bilan ortishi, iqtisodiyotning barcha sektorlarida, jumladan, transport, aloqa, sog'liqni saqlash va boshqa noishlab chiqarish tarmoqlarida ham kuzatilmoqda. Shu bilan kichik korxonalarining iqtisodiyotdagi o'rnini va ahamiyatini ortib bormoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyatini quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- xususiy tadbirkorlik bozor iqtisodiyoti sharoitida zarur tezkorlikni ta'minlab, ishlab chiqarishdagi chuqur ixtisoslashuv va tarmoqlashgan kooperatsiyani yaratadi, bularsiz yuksak samaradorlikni ta'minlab bo'lmaydi;

- bozor uchun zarur bo'lgan raqobatshilik muhitini yaratadi hamda o'zgarib turadigan bozor talabiga moslab tezda ishlab chiqarish turini o'zgartirib olish qobiliyatiga ega ekanligi bilan ajralib turadi;

- iste'molchilik sohasida yuzaga keladigan bo'shliqni tezda to'ldirishga qodir bo'lib, eng zamonaviy mashina uskunalari va texnologiyadan foydalanib sarflangan sarmoyaning o'rnini juda tez qorlay oladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning xususiyatlari uning bir qancha afzalliklarga ega bo'lishi imkoniyatlarini yaratadi:

- tezkor texnik servisning ishonchliligi va iste'molchilar bilan mustahkam aloqalar o'rnatish;

- ishlab chiqarishni moslashuvchan tarzda tashkil etish va mahsulot sotishni bozor talablariga hamda bozor vaziyatlari o'zgarishlariga muvofiq olib borish;

¹¹ www.lex.uz

- izlanish, yangi mahsulotlarni maromiga yetkazish va o'zlashtirish, ularni talabning tez o'zgarib turishi xatarini hisobga olgan holda kichik uyushmalarda ishlab chiqarish;
- boshqarishning oddiyligi, katta ma'muriy apparatning yo'qligi, qurilish va loyiha quvvatlarini o'zlashtirishda qisqa muddat, kapital sarflarining tez o'zini oqlashi, kapital aylanmasida yuqori tezlik;
- ortiqcha ish kuchini o'ziga singdirish;
- xomashyo va mehnat resurslari, ishlab chiqarish chiqindilaridan to'liqroq va samaraliroq foydalanish.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni hamda u bilan bog'liq barcha holatlar zamonaviy ijtimoiy ishlab chiqarish tashkiliy tuzilmasini muhim va tarkibiy qismini tashkil etadi. Shuning uchun ham davlatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka muhim o'rin ajratilib, ularga davlat tomonidan madad berilmoqda.